

X. ISTE'MOL BOZORI


2022- yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5561,2 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 193,5 foizga ko‘payib, 1252,1 mlrd.so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 22,5 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 0,4 foizga kamayib, 3470,6 mlrd. so‘mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 62,4 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 838,4 mlrd. so‘mi uyushmagan savdo (dehqon va chorva bozorlari) hisobiga to‘g‘ri keldi va o‘shish sur‘ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 5,1 % ga oshdi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 15,1 % ga teng bo‘ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (2022- yilning yanvar–iyun holatiga)




2022- yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 1,8 mlrd. so‘mni, nodavlat mulki 5559,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 41,3 %, Hazorasp tumani 8,9 % hisobiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek: Tuproqqal‘a tumani 1,9 %, Yangibozor tumani 2,0 %, Xiva tumani 2,4 %, va Xiva shahri 3,2 % eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi (% hisobida)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati 193,5 foizni tashkil qildi. O'z navbatida, Urganch shahrida (2021- yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga), Shovot tumanida (168,8 foizga), Xonqa tumanida (159,8 foizga), Yangiariq tumanida (125,9 foizga) va Bog'ot tumanida (116,1 foizga) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 91,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,7 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 43,6 %, Urganch tumani 17,9 % hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, Qo'shko'pir tumani 1,5 % va Tuproqqal'a tumani 1,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi
(umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan% da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan% da</i>
Viloyat bo‘yicha jami:	5561,2	112,8	2880,8	111,0
Urganch shahar	2294,9	132,6	15569,1	130,7
Xiva shahar	176,5	100,9	1848,0	99,1
tumanlar:				
Bog‘ot	245,8	102,6	1446,0	100,9
Gurlan	437,4	105,3	2868,0	103,5
Qo‘shko‘pir	191,1	101,5	1083,2	100,2
Urganch	449,9	100,8	2180,7	98,8
Hazorasp	494,2	100,8	2479,8	99,6
Tuproqqal‘a	104,6	100,5	1838,8	97,3
Xonqa	363,3	102,2	1889,5	100,4
Xiva	134,9	100,8	899,5	99,2
Shovot	351,0	104,5	2008,2	102,9
Yangiariq	205,0	100,6	1718,5	99,1
Yangibozor	112,5	102,7	1254,0	101,1

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 111,0 % bo‘lib, 2 880,8 ming so‘mni tashkil etdi (2021- yil yanvar-iyun oylarida 2 314,0 ming so‘m). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarini Urganch shahri (15 569,1 ming so‘m), Gurlan tumanida (2 868,0 ming so‘m) va Hazorasp tumanida (2 479,8 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlar esa Xiva tumanida (899,5 ming so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida (1 083,2 ming so‘m) qayd etdi.

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning
(uyushmagan savdo qo‘shilgan holda) ulushi, %**



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2303,0 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 119,4 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil qilib, ulardagi hajm 459,0 mlrd. so‘m bo‘ldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil qilib 1844,0 mlrd. so‘m bo‘ldi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 80,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	<i>Jami mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Yirik korxonalar mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Kichik korxonalar mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>
Viloyat bo‘yicha jami:	2 302 975,5	119,4	459 004,9	115,4	1 843 970,7	120,4
Urganch shahar	1 039 891,8	114,2	104 471,6	83,0	935 420,1	119,2
Xiva shahar	101 585,6	140,8	337,3	63,9	101 248,3	141,3
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	67 208,5	135,2	43 322,1	144,8	23 886,4	120,8
Gurlan	161 069,8	145,5	93 493,4	123,7	67 576,4	192,2
Qo‘shko‘pir	23 005,7	188,7	4,2	62,8	23 001,6	188,8
Urganch	395 920,4	105,9	137 732,9	86,5	258 187,5	120,2
Hazorasp	44 471,8	158,5	12 940,7	4 3,2 m.	31 531,2	113,6
Tuproqqal‘a	30 796,1	132,5	11,1	55,3	30 785,1	132,6
Xonqa	135 121,0	161,6	55 351,4	1 2,9 m.	79 769,6	100,5
Xiva	164 983,5	105,6	1,6	1,3	164 981,9	105,7
Shovot	35 193,6	111,1	8,0	16,7	35 185,6	111,2
Yangiariq	54 875,5	183,0	10 513,6	53,4 m.	44 361,9	148,9
Yangibozor	48 852,2	119,9	817,1	97,8	48 035,2	120,4